

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

9. Saidovich S. S. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI //Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. – 2025. – T. 18. – №. 2. – C. 379-383.
10. Mahmudovna S. D. ZAMONAVIY MOLIYAVIY BOSHQARUV VA IQTISODIY BARQARORLIK //YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 7. – C. 695-702.
11. Цой М. Развития сферы услуг в Узбекистане: тенденции и перспективы //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 73-86.
12. Aslanov A. X. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MASALALARI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 284-288.
13. Samiyeva M. F. Q. Barqaror xizmat ko‘rsatishga asoslangan biznes modellari sanoat kompaniyalarida raqamli texnologiyalar salohiyatini o‘rganish //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 823-828.
14. Цой М. П., Худояров Р. Т., Рашидов А. Р. ПРОДВИЖЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 292-295.

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI YAXSHILASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Hamraqulov Shokir Abduhakim o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, O‘quv-uslubiy boshqarma. Akademik litsey va texnikumlarga metodik yordam berish sektori bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda to‘qimachilik korxonalarida xizmatlar sifatini yaxshilashning innovatsion mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro tajribalar, zamonaviy xizmatlar boshqaruvi yondashuvlari, raqamli texnologiyalar, servis jarayonlarining avtomatlashtirilishi hamda iste’molchi ehtiyojiga moslashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanishning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, to‘qimachilik korxonalarida xizmatlar sifatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, raqamli servis platformalari, Lean Service, CRM, IoT texnologiyalari va “aqlli servis” tizimlarining qo‘llanishi amaliy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion mexanizmlar, xizmatlar sifati, to‘qimachilik korxonalari, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, CRM tizimlari, Lean servis, aqlli servis, IoT texnologiyalari, mijozlar qoniqishi, raqobatbardoshlik, xizmatlar boshqaruvi, servis jarayonlari, sifat menejmenti.

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, kompleks ishlab chiqarish jarayonlari, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyati va xizmatlar tizimi bilan uzviy

bog‘liqdir. Xalqaro ekspertlarning ta’kidlashicha, sanoatning raqobatbardoshligi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligiga, balki korxonalar tomonidan iste’molchiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatiga ham bevosita bog‘liqdir⁹⁵. Xizmatlar sifati korxona brend imiji, bozor ulushi, mijozlar sodiqligi va mahsulot raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida to‘qimachilik korxonalarida xizmatlarning zamonaviy mexanizmlar asosida tashkil etilishi – masalan, CRM tizimlari, IoT platformalari, avtomatlashtirilgan servis, “aqlli logistika”, mijozlar bilan real vaqt aloqasi, big data tahlili – xizmatlar sifatini tubdan oshirish imkonini bermoqda⁹⁶.

Xizmat sifati korxonaning mijoz ehtiyojlariga qanchalik mos kelishi, xizmatning tezligi, aniqligi, ishonchliligi va avtomatlashtirilganligi bilan belgilanadi. Xalqaro amaliyotda xizmat sifatini baholashda SERVQUAL modeli keng qo‘llanadi⁹⁷. Unda sifat 5 ko‘rsatkich bo‘yicha baholanadi:

1. ishonchlilik;
2. javob berish tezligi;
3. kafolat va ishonch;
4. mijozga e’tibor;
5. moddiy-texnik ko‘rinish.

To‘qimachilik korxonalarida bu model kengaytirilgan servis mexanizmlari bilan uyg‘unlashtiriladi. Chunki tekstil tarmog‘ida mijozlar nafaqat tayyor mahsulot, balki logistika, qadoqlash, dizayn bo‘yicha maslahat, ishlab chiqarishni moslashtirish, texnik ko‘mak kabi xizmatlarni ham talab qiladi⁹⁸.

Innovatsion mexanizmlarning to‘qimachilik korxonalarida qo‘llanishi.

1. CRM tizimlaridan foydalanish:

CRM (Customer Relationship Management) texnologiyalari mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishning eng samarali innovatsion mexanizmlaridan biridir. Dunyoning yetakchi to‘qimachilik kompaniyalari – “Inditex”, “H&M”, “Uniqlo” – mijozlar xatti-harakati, xarid tarixi va talab prognozini aniqlash uchun CRM tizimlaridan keng foydalanmoqda⁹⁹.

Uning afzalliklari:

- mijozlar segmentatsiyasi;
- shikoyatlar avtomatik qayd etilishi;
- buyurtmalar tarixi va talab prognozi;
- avtomatlashtirilgan aloqa (chatbot, email marketing).

Jizzax viloyati korxonalarida (Jizzax Textile, Golden Textile, Oskar Tex Group va boshqalar) ushbu tizimlarni joriy etish xizmatlar sifatini oshirishga imkon beradi.

2. Raqamli servis platformalari

⁹⁵ World Bank. “Industry Competitiveness and Services”

⁹⁶ OECD. “Digital Transformation in Manufacturing”

⁹⁷ Parasuraman A., Zeithaml V., Berry L. “SERVQUAL Model”, Journal of Retailing

⁹⁸ McKinsey. “Textile Value Chain Management Report”

⁹⁹ HBR. “CRM as a Strategic Advantage in Global Apparel Industry”

Dunyo tajribasida to‘qimachilik korxonalarini raqamli servis platformalarini keng tatbiq etmoqda. Masalan, Turkiya, Bangladesh va Vetnamda ishlab chiqarish jarayonidan tortib logistika tizimlarigacha bo‘lgan barcha xizmatlar raqamli boshqaruv platformalariga o‘tkazilgan¹⁰⁰.

Raqamli platformalar quyidagilarni ta‘minlaydi:

- buyurtmalarni real vaqt kuzatish;
- mijoz bilan doimiy aloqa;
- avtomatlashtirilgan servis jarayonlari;
- sifat bo‘yicha tezkor hisobotlar;
- IoT orqali ishlab chiqarish holatini monitoring qilish.

IoT sensorlari mahsulot sifatidagi o‘zgarishlarni nazorat qilib, servis xizmatini tezkor rejalashtirish imkonini beradi¹⁰¹.

3. Lean Service texnologiyasi

Lean Service — xizmatlar jarayonini ortiqcha harajatlar va keraksiz operatsiyalarni bartaraf qilish asosida optimallashtirish texnologiyasidir.

Lean Service afzalliklari:

- xizmat ko‘rsatish vaqtining 20–40% qisqarishi;
- xatoliklar sonining kamayishi;
- mijoz qoniqishining oshishi;
- xarajatlarning 10–15% tejalishi¹⁰².

Ushbu mexanizm to‘qimachilik korxonalarida buyurtmalarni tez va sifatli bajarish imkonini beradi.

4. “Aqlli servis” tizimlari

“Aqlli servis” tizimlari sun‘iy intellekt, big data, IoT va avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlariga asoslanadi.

Ularning asosiy yo‘nalishlari:

- avtomatlashtirilgan yordam xizmati (AI chatbot);
- real vaqt monitoring;
- mahsulot sifatidagi nuqsonlarni AI orqali aniqlash;
- avtomatik logistika boshqaruvi;
- avtomatik xizmat ko‘rsatish jadvali.

Dunyo bo‘yicha AI servis tizimlari xizmat sifatini 30–50% gacha oshirishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan¹⁰³.

To‘qimachilik sanoatida xizmatlar sifatini oshirish zamonaviy innovatsion mexanizmlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli servis platformalari, CRM tizimlari, IoT, AI texnologiyalari va Lean Service yondashuvlari xizmatlar sifatini oshirishning eng samarali mexanizmlaridir. Mazkur yondashuvlarni Jizzax viloyati to‘qimachilik korxonalarida bosqichma-bosqich joriy etish korxonalarining raqobatbardoshligi, eksport salohiyati va mijozlar qoniqishini sezilarli darajada oshiradi.

¹⁰⁰ ITC (International Trade Centre). “Textile Industry Digitalization”

¹⁰¹ Deloitte. “IoT in Apparel Manufacturing”

¹⁰² Toyota Service Management Principles

¹⁰³ IBM & MIT Joint Report. “AI-based Service Optimization”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. “Industry Competitiveness and Services”
2. OECD. “Digital Transformation in Manufacturing”
3. Parasuraman A., Zeithaml V., Berry L. “SERVQUAL Model”, Journal of Retailing
4. McKinsey. “Textile Value Chain Management Report”
5. HBR. “CRM as a Strategic Advantage in Global Apparel Industry”
6. ITC (International Trade Centre). “Textile Industry Digitalization”
7. Deloitte. “IoT in Apparel Manufacturing”
8. Toyota Service Management Principles
9. IBM & MIT Joint Report. “AI-based Service Optimization”

SANOAT - MILLIY IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG‘I

Nizametdinov Alijon Akramovich

UZMUJF o‘qituvchisi

Ropiyeva Fero‘za Bekzod qizi, Sharifova Iroda Erkin qizi, Boliyeva Sitorabonu

Husan qizi

UZMUJF talabalari

Annotatsiya: Ushbu mavzuda sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, ahamiyati va yetakchi tarmoq sifatidagi roli yoritiladi. Sanoat mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiruvchi, yalpi ichki mahsulotda yuqori ulushga ega bo‘lgan, aholi bandligini ta‘minlaydigan va boshqa iqtisodiy tarmoqlar rivojiga turtki beruvchi asosiy soha sifatida talqin etiladi. Mavzuda sanoatning tarkibiy tuzilishi, modernizatsiya jarayonlari, texnologik yangilanishlar, eksport salohiyatini oshirishdagi o‘rni hamda hududiy rivojlanishdagi ta‘siri tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion sanoat siyosati, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda sanoatning strategik ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘z: sanoat, iqtisodiyot, texnologiya, mexanizm, mahsulot, duradgorchilik, temirchilik

Sanoat - bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. demak, sanoat obyektiv reallik (borliq)ning in‘ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya‘ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo‘lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog‘liqdir. Sanoat ham obyektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma‘lum davr (vaqt va fazo) da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma‘lum miqdor va sifatlarga, zarurat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo‘lgan.

O‘zbekiston sanoati ham o‘z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o‘tgan. Eng avvalo, uy sanoati, so‘ngra, hunarmandchilik, ya‘ni xonaki sanoat,